



“MASLAK UL-MUTTAQIN”DA SAJDAI SAHV BAYONI

Gulruh Kenjaboy Mirzo qizi

ToshDO'TAU I-kurs doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada So'fi Ollohyorning qalamiga mansub “Maslak ul-muttaqin” asarida ibodat masalalaridan hisoblangan sajdai sahvning qay darajada yoritilganligi va boshqa fiqhiy manbalar bilan qiyosi haqida soʻz yuritiladi.*

Kalit soʻzlar: *Sajdai sahv, vojib, sajda, rukn, qa'da, fatvo.*

So'fi Olloyor — tariqat arbobi va mutasavvuf shoir. Turkiy va forsiy tillarida ijod qilgan So'fi Olloyor ijodining asosiy yo'nalishi islom ma'rifatini keng xalq orasiga yoyish va tasavvufning insoniy kamolot bilan bog'liq g'oyalarini targ'ib-tashviq qilishdan iborat. U «Maslak ul-muttaqin» («Taqvodorlar maslagi»), «Murod ul-orifin» («Oriflar murodi»), «Mahzan ul-mute'in» («Itoatkorlar xazinasi») asarlarini forsiy, «Sabot ul-ojizin» («Ojizlar saboti»), «Favz un-najot» («Najot tantanasi») masnaviylarini turkiy tilda yaratgan. Forsiy va turkiyda bitilgan boshqa she'rlari ham mavjud. «Mevalar munozarasi» nomli manzuma xam unga nisbat beriladi.

So'fi Ollohyorning shoh asari «Maslak ul-muttaqin» bo'lib, 12 ming bayt, 135 ta katta-kichik bobdan iborat. Ilohiy ma'rifatning badiiy talqiniga bag'ishlangan bu asar el orasida shuhrat tutganidan so'ng do'st-u yaqinlari undan turkiy tilda ham shunday bir kitob yozishni iltimos qiladilar. Bunga javoban u «Maslak ul-muttaqin»ni birmuncha qisqartirib, o'zbek tilida nazmda bitgan va unga «Sabot ul-ojizin» deb nom bergan. O'zbek falsafiy didaktik adabiyotining yetuk namunasi bo'lmish ushbu asarda tasavvuf ta'limotining ma'naviy-axloqiy masalalarini keng yoritish bilan u turkiy tasavvuf adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan. Asarlarida islom ahkomlari, tariqat talablari, insoniy komillik shartlarini birma-bir ta'riflab bergan. Axloqiy-ta'limiy ahamiyati jihatidan, xususan, «Maslak ul-muttaqin» va «Sabot ul-ojizin» asarlari maktab va madrasalarda asosiy darsliklar qatorida o'qitilib kelingan.

So'fi Ollohyorning “Maslak ul-muttaqin” asari fiqh, aqida va odob-axloq masalalari yoritilgan katta ahamiyatga ega manba sanaladi. Unda fiqhiy masalalarning taqvo va odob jihatlari ham e'tiborga olingan bo'lib, asar ta'lif qilinishida yuzdan ortiq fatvo kitoblaridan foydalanilgan. Asar fors tilida bo'lib, u xalqimiz orasida qadimdan mo'tabar asar sifatida e'tirof etiladi. Asardan madrasalarda darslik sifatida ham foydalanilgan.

So'fi Ollohyorning “Maslak ul-muttaqin” asarida boshqa masalalar qatorida “sajdai sahv” masalasi ham keng yoritilgan. Asarda “sajdai sahv” masalasiga oid quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: “Fatavoyi Abul Lays” quyidagilarni bayon qiladilar “Har kishi vojibni qasddan tark qilsa gunohkor bo'lib, namozi nuqson bilan tamom bo'ladi. Agar unutib tark qilsa sajdai sahv bilan to'g'ri bo'ladi”. “Saloti Mas'udiy” da aytadilar: “Vojibni qasddan tark qilsa, sajdai sahv bilan ko'tarilmaydi, gunohkorlik boqiy turadi”. “Muxtasar Viqoya” da aytadilar: “Sajdai sahv vojib bo'lgan odam qa'dai oxirda o'tirib, Attahiyotni o'qib, bir tarafga salom berib, ikki sajda qilsin”. “Sharhi Avrod”da “Kofiy” dan naql qiladilar:



“Ommai buzruklarni qavli shulki, ikki tomonga salom bersa so'ng sajdai sahv bo'lmas”. “Zaxiyr”da ham shunday. “Hidoya” da sahih rivoyat shuki, ikki tarafga salom berib so'ng sajdai sahv qilsin”. “Yanobe” da ham shunday. “Sirojiyya” da; “Agar imom bo'lsa bir tarafga salom berib, tanho bo'lsa bir tarafga salom berib, tanho bo'lsa ikki tarafga salom berib so'ng sajdai sahv qilsin. So'ng yana attahiyotni o'qib yana salom bersin. Lekin sahvdan oldin attahiyotni o'qisin, salovatni o'qimasin”. “Sharhi Avrod” da, “ Nisobul Ihtisob”da,”Xulosa” da xuval muxtordir. Va yana “Nisob” da masbuq imom bilan sajdai sahv qilgandan so'ng attahiyotni va salovatni va duoni o'qisin, deb sahih rivoyat bilan aytibdilar. Agar masbuq sajdai sahvdan so'ng bularni o'qimasdan tursa makruh bo'ladi. “Sharhi Avrod” da aytadilar: “Agar sajdai sahv qilgandan keyin o'tirmay turib ketsa, “Xulosa” da namozi durust debdilar, ammo makruh bo'lur, zeroki sajdai sahv salomidan keyin o'tirmoq farz emas”. “Muxtasari Viqoya” da aytadilar “Agar kishi ruknni kechiktirsa, yoki vojibni o'zgartirsa sajdai sahv lozim bo'lur. Va yana ruknni takror qilsa, yoki o'zgartirsa sajdai sahv vojib bo'ladi”. “O'zgartirgani shuki, tartibni tark qilsa, ya'ni ruku'dan oldin sajda qilsa, zeroki, tartibga rioya qilish vojibdir”. “Hidoya” da aytadilar: “Masalan bir kishi bir rakatda ikki kelar farzni tartib bilan qilmog'i vojibdir. Masalan bir sajda qilsa, so'ng bir sajdasi qolgani zohir bo'lsa, ikkinchi rakatda uch sajda qilsin”. “Kofiy” da aytiladi: “Qiyomni ruku' va sajdadan oldin qilish lozimdir”. Bu masala namozning vojibi faslida keladi. Kechiktirish, agar avvalgi qa'dada o'tirib, attahiyotni o'qiboq turmay, bir nimani ziyoda qilsa, sajdai sahv vojib bo'ladi. “Sharhi Avrod” va “Xulosa” da attahiyotdan so'ng “Allohumma solli a'la Muhammadin”, desa, sajdai sahv lozim bo'ladi. Huval Muxtordir. Imomi A'zam aytadilar: “Ikki harf ziyoda bo'lsa sajdai sahv vojib bo'ladi”. Abu Ja'far aytdilar: “Munchalik bilan vojib bo'lmas qiyos bilan, ammo istehzonda bunga fatvo debdilar. “Abul Hasan Moturidiy “Sirojiyya” da aytadilar: “ Salovatni “oli Muhammadin” gacha aytsa, sajdai sahv lozim bo'lur. Bunga yetmasa lozim emas”. Ammo Sayyid imom lozim dedilar. “Sharhi Avrod” da “Targ'ibus - solatdan naql qilinadi: “Asah rivoyat shuki, (salovatni) tamom qilmaguncha sajdai sahv vojib bo'lmas”. Takrori rukn, ikki ruku' qilsa. O'zgarishining vojibi, jahriy namozni maxfiy yoki aksini qilsa. Kechiktirishning miqdori vojibning faslida o'tdi.

“Hidoya” da aytiladi: “Imom jahrni past o'qisa sajdai sahv lozim bo'ladi. Uning miqdorida ulamolar ixtilof qilganlar. Lekin sahih qavl shuki, namoz u bilan joiz bo'ladigan qiroatni jahriy namozda past o'qisa yo aksini qilsa sajdai sahv lozimdir. “Sharhi Avrod” da “Honiyya” dan naql qilinadi: “Jahrni past (o'qisa) yo aksi xoh ko'p xoh oz bo'lsin, sajdai sahv lozimdir, bu zohir rivoyatdir. “Xulosa” da Shamsul aimma bunga e'timod dedi. “Hidoya” da “Navodir” da ham shunday.

Agar kishiga sajdai sahv lozim bo'lsa, u sajdai sahvni unutib, namozni tugatmoq uchun salom bersa, keyin yodiga tushsa, agar bir ish qilmagan bo'lsa, yo gapirmagan bo'lsa, sajdai sahv qilsin. Agar so'zlagan bo'lsa sajdai sahv qilmas. Bu rivoyat “Zaxiyr” da keltirilgan. Duoi qunutdan avval sano o'qisa lozim bo'lmas, ammo qiroat qilsa lozim bo'ladi.

“Sirojiyya” da aytiladi: “Namozda ikki uch sahv qilsa bir sajdai sahv bilan bo'ladi”. “Muxtasar” ni sharhlarida aytiladi: “Agar namozda necha rakat o'qiganiga birinchi marta shubha qilsa, salom berib, qaytadan niyat qilsin. Agar shubhani ko'p qiladigan bo'lsa, qaysi g'olib bo'lsa, shuni qilsin. Agar oxirgi qa'dada shubha bo'ladigan bo'lsa, o'tirsin so'ng yana bir rakat o'qisin, sajdai sahv bilan tugatsin.” “Muzmarot” da aytiladi: “Agar naflda yo



sunnatda birinchi qa'dani tark qilsa, uchinchi rakatga sajda qilmagan bo'lsa, yana qa'daga o'tirsin. Agar sajda qilgan bo'lsa, "Kifoyai Sha'biyd" da aytiladi: "Namozi buzilmaydi, Shayxayn nazdida sahv lozim bo'ladi". "Xulosa" da Imom Muhammad nazdida namozi buziladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Maslak ul-muttaqin" asarida ibodat masalalaridan bo'lgan sajdai sahv atroflicha yoritilgan. Hanafiy fiqhining eng mo'tabar manbalarining yetarlicha o'rganilganligi va puxta yoritilganligi, mujtahid olimlarning turli ijtihod va qarashlari ham joy olganligi bois asar o'zining ahamiyati va qimmatbaho manbalik xususiyatini saqlab qolgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Burhoniddin Marg'inoniy / "Hidoya". –T: Hilol-nashr-2020
2. So'fi Ollohyor / "Maslak ul-muttaqin". –T: Sharq-2020
3. So'fi Ollohyor / "Sabot ul-ojizin". –T: Cho'lpon-1991
4. www.ziyouz.com So'fi Olloyor (1644-1724). 28.10.2013
5. www.saviya.uz So'fi Ollohyor. 20.10.2017.